

ISLOM HUQUQI TIZIMI MOHIYATI, MANBALARI, O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Masharipov Zafarbek Normatovich

*O'zbekiston Respublikasi IIV ning Xorazm akademik litseyi
huquqshunoslik fani o'qituvchisi*

Annatsiya: Maqolada islom huquqi, uning alohida huquqiy tizim sifatida paydo bo'lishi, mohiyati, manbalari, o'ziga xos xususiyatlari haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Davlat, Huquq, Islom, Olloh, Qur'oni Karim, Muhammad payg'ambar, Sunna, Ijmo, Fiqh, Etiqod, Ibodot, Musulmon.

Аннотация: В статье описывается исламское право, его становление как правовой системы, его сущность, источники и уникальные особенности.

Ключевые слова: Государство, Закон, Ислам, Аллах, Священный Коран, Пророк Мухаммад, Сунна, Иджма, Фикх, Вера, Поклонение, Мусульманин.

Annotation: The article describes Islamic law, its emergence as a legal system, its essence, sources, and unique features.

Key words: State, Law, Islam, Allah, Holy Quran, Prophet Muhammad, Sunnah, Ijma, Fiqh, Belief, Worship, Muslim.

Kirish

Insoniyat qadim zamonlardan buyon davlat va huquq masalalariga katta qiziqish bilan munosabatda bolib keladi. Davlat hokimiyati hamda huquqiy hayot hodisalari hamma zamonlarda alohida dolzarbiik kasb etib kelganligi barchaga ayon. Bu voqeliklar mustaqil O'zbekiston Respublikasi uchun ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Zero, yangi demokratik davlatchilik binosini barpo etayotgan jamiyatimiz davlat, demokratiya, huquq, qonunchilik, xalq hokimiyatchiligi, inson huquqlari kabi qator kategoriyalar mazmun-mohlyatini qayta mushohada etishga muhtoj.

O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar¹.

Islom huquqi alohida huquqiy tizim sifatida paydo bo'lishi, mohiyati, manbalari, sohalari, institutlari, o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa huquqiy tizimlardan jiddiy farq qiladi. Shuning bilan bir qatorda islom huquqi umuman huquqiy tizimlar uchun xos bo'lgan xususiyatlarni u yoki bu darajada o'zida mujassamlashtirgan. Bundan

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 8,19 moddalar.-T: 2023. <https://lex.uz>

tashqari islom huquqi ma'lum bir darajada boshqa huquqiy tizimlarga ta'sir ko'rsatgan, ayni paytda ularning ta'siriga uchragan. Bu nafaqat o'tmishda, balki hozirgi davrda ham ko'zga tashlanmoqda. Shu munosabat bilan, islom huquqini o'rganish talabalarning huquq haqidagi bilimlarining kengayishi, mazmunan boyishi va chuqurlashishiga zamin yaratadi²

Asosiy qism

Islom huquqni Olohd tomonidan tarixiy bir davrda insoniyatga Muhammad payg'ambar orqali nozil etilgan deb biladi. Jamiyat doimo o'zgaruvchan ijtimoiy sharoit ta'siri ostida o'z huquqini yaratmasdan, balki Olohd tomonidan bir marotaba va abadiy berilgan ushbu huquq orqali boshqarilishi lozim.

Haqiqatan, musulmon huquqi nazariyasi Olohning inoyati sharhlar va izohlarga muhtojligini tan oladi, shuning uchun ham asrlar davomida bunga musulmon huquqshunoslarining mashaqqatli mehnatlari sarflangan.

Ushbu xatti-harakatlar yangi huquqni yaratishga yo'naltirilmasdan, balki Olohd tomonidan berilgan huquqdan faqatgina amaliyotda foydalanishga ko'mak berdi. Musulmon huquqi Olohd erkini o'zida qanchalar aks ettirmasin, nafaqat odatdagi huquqiy sohaga tegishli bo'lmay, balki ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan. Shunday qilib, musulmon huquqi musulmon bilishi shart bo'lgan maqsadlarni, amal qilishi talab qilingan ro'zani, berishi farz bo'lgan zakotni, ziyorat qilishi kerak bo'lgan hajni keng ma'noda yoritib beradi. Belgilangan qoidalarga rioya qilishlik uchun majbur qilish mumkin emas.

Bunda u yuridik normalarni, shuningdek huquqiy bo'lmagan, birinchi navbatda diniy va axloqiy regulyatorlarni hamda odatlarni o'z tarkibiga kiritgan yagona ijtimoiy-normativ tartibga soluvchi islom tizimi asosiga quriladi.

Shariat ikki qismdan - diniy, ya'ni etiqod tamoyillaridan (aqida) va huquqdan (fiqh) iborat.

Fiqh, ya'ni musulmon huquqi ikki qismga bolinadi; birinchisi, musulmonning o'ziga o'zgalar munosabatiga nisbatan xulqiy qarashiga ko'rsatma beradi (muomalat), ikkinchisi esa, musulmonning Olohd oldidagi majburiyatini (ibodat) belgilaydi. Bu ikkala qism ham huquqiy maktablar tomonidan qanday aniqlangan va o'rganilgan bo'lsa, xuddi shunday ko'rinishda yuridik fanlar predmetini tashkil qiladi. Musulmon huquqining to'rtta asosiy manbalari haqidagi talimot yaratildi. Birinchi manba, tabiiy ravishda, Qur'oni Karimdir. Ikkinchi manba - Qur'oni Karim qoidalarini izohlab va tushuntirib berish uchun o'ta muhim bolgan -Sunna, ya'ni payg'ambarning hadislaridan iborat. Uchinchi manba - ijmo (bitim), butun musulmon ahli tomonidan muayyan diniy-huquqiy muammolar yuzasidan qilingan umumiy fikr. Nihoyat to'rtinchi manba

² J.Toshqulov [va boshq.].Islom huquqshunosligi (Fiqh): o'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Toshkent islom universiteti, 2014. B.8-9.

- taqqoslash (qiyos), ya'ni Qur'oni Karim, sunna yoki ijmo tomonidan o'rnatilgan qoidafarni yangi o'xshash holatlarda qollash.

Musulmon huquqiy manbalari to'g'risidagi talimotni rivojlantirishning keyingi bosqichlarida uning amaliy g'oyalarini mohiyatan oshiruvchi faqat bir o'zgartirish - barcha yoki faqat birgina maktab huquqshunoslari tomonidan qabul qilingan taklif ham to'g'ri hisoblangan ijmo g'oyasi kiritildi.³

Islom huquqi tizimida davlat huquqi muhim o'rin tutuvchi va yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Davlat huquqi va uning asosiy institutlari haqida tegishli tushunchaga ega bo'lmasdan turib, islom davlatining mohiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari, boshqa davlatlardan farq qiladigan jihatlari, ichki va tashqi siyosati, davlat mehanizmi va uning tarkibiy qismlari, davlat organlarining tashkiliy tamoyillari, vazifalari va faoliyatlarining asosiy yo'nalishlari, markaziy va mahalliy davlat hokimiyat va boshqaruv organlarining o'zaro munosabatlari, mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishi, turli hududiy birliklar o'rtasidagi aloqalar, fuqarolikka qabul qilish va undan chiqarish, fuqarolarning huquqiy maqomi, ularning huquq va majburiyatlari, ularni turli davlat organlari tomonidan muhofaza qilish, cheklash, ulardan mahrum qilish bilan bog'liq masalalarning mazmun va mohiyatini tushunib yetish amri mahol. Shuningdek, davlat huquqi institutlari haqida tegishlicha tasavvurga ega bo'lmasdan turib, islom huquqining boshqa sohalari – moliya huquqi, fuqarolik huquqi, oila huquqi, meros huquqi, sud huquqi kabilarni o'zlashtirish qiyin bo'ladi. Sanab o'tilgan huquq sohalari davlat huquqi, ayniqsa uning fuqarolik, fuqarolarning huquq va burchlari kabi institutlari bilan chamcharchas bog'liq.

Bundan tashqari, davlat huquqi va uning institutlari haqida aniq tushunchalarga ega bo'lish hozirgi zamon musulmon davlatlarining mohiyati, boshqarish shakli va ma'muriy-hududiy tuzilishi, amalga oshiradigan ichki va tashqi siyosati haqida talabalar bilimni chuqurlashtirish va kengaytirishga zamin yaratadi.

Eng muhimi, islom niqobi ostidagi aqidaparastlar va ekstremistlar shariat qonunlariga asoslangan davlat va jamiyatni barpo etish maqsadida yer yuzidagi ko'pchilik mamlakatlarda faol harakatni boshlab yuborgan bir sharoitda musulmon davlat huquqi va uning institutlarini o'rganish dunyoviy insonparvar demokratik huquqiy davlat dushmanlarning asl maqsadlarini talabalarimiz tushunib yetishida alohida ahamiyat kasb etadi⁴.

Islom davlati huquqi – bu davlat hokimiyati asoslari, davlat boshqaruv organlari va ma'muriy-hududiy tuzilishi, mansabdor shaxslarga qo'yiladigan talablar, ularning vakolatlari, fuqarolik, unga qabul qilish va undan mahrum qilish, davlat bilan

³ X.B.Boboyev, Odilqoriyev. X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. –T.: Adolat. 2005. B. 373,376.

⁴ J.Toshqulov [va boshq.].Islom huquqshunosligi (Fiqh): o'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Toshkent islom universiteti, 2014. B. 327-328.

fuqarolar o'rtasidagi aloqalar, fuqarolarning huquq va burchlari hamda ularning kafolatlari bilan bog'liq munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy normalar va intitular tizimidir.

Davlat huquqiy munosabatlari, davlat hokimiyat va boshqaruv organlari, davlat markaziy va mahalliy organlari, davlat organlari, mansabdor shaxslar bilan fuqarolar o'rtasida vujudga kelishi mumkin. Ushbu munosabatlar mazmunini ularda ishtrok etayotgan taraflarning huquq va majburiyatlari tashkil qiladi. Masalan, davlat boshlig'i tomonidan biror-bir shaxs ma'lum bir vazifani bajarish uchun lavozimga tayinlanayotgan bo'lsa, davlat boshlig'i bo'lajak mansabdorning vazifalarini, vakolatlarini, maoshini belgilaydi, uning o'z vakolatlarini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratadi, mansabdor belgilangan vazifani bajarishini o'z zimmasiga oladi.

Islom davlati huquqi normalari Qur'oni karim, Muhammad payg'ambar sunnatlari, ijmo va yirik musulmon davlatshunoslari va huquqshunoslari asarlarida o'z aksini topgan. Mutaxassislarning fikricha, Qur'oni karimda davlat huquqiga oid oyatlar soni o'nta, bu sohaga oid o'nlab hadislar bor. Bundan tashqari, fuqarolarning huquq va majburiyatlariga aloqador bo'lgan o'ndan ortiq oyat va qirqa yaqin hadislar mavjud.

Islom davlat huquqiy munosabatlarining subyektlari: davlat, davlat organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar – musulmonlar, zimmiylar, islom davlatida istiqomat qiluvchi hech bir dinga e'tiqod qilmaydiganlar, u yoki bu sabablarga ko'ra islom davlatiga kelgan musulmon bo'lmagan xorijiy fuqarolar.

Islom davlat-huquqiy munosabatlarining obyektivi davlat hokimiyati va boshqaruvini tashkil qilish hamda amalga oshirish shakllari va usullari, fuqarolikka ega bo'lish undan chiqish tartibi, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda majburiyatlari va boshqalar.

Hozirgi kunda musulmon huquqi zikr etilgan mamlakatlarning birortasida ham amal qiladigan yagona huquq maqomida emas. Faqat XX asrning 20-yillarida xalifalikning rasmiy ravishda bekor qilingani tufayli Turkiyada musulmon huquqi barcha tarmoqlarda (jumladan, oila-nikoh munosabatlarini mutanosiblashtirishda ham) G'arbiy Yevropadan o'zlashtirilgan qonunchilik bilan almashtirildi.

Bevosita amaldagi musulmon huquqi miqyosini, shuningdek uning qonun chiqarishga nisbatan ta'sir darajasini asos qilib, islom mamlakatlari hozirgi huquqiy tizimining quyidagi tasnifini keltirish mumkin.

Birinchi guruhni musulmon huquqi keng qo'llanib kelinayotgan Saudiya Arabistoni, Ummon va Eron huquqiy tizimlari tashkil etadi. Uning normalari va tamoyillari, eng avvalo, mazkur mamlakatlardagi konstitutsiyaviy va shakllangan boshqaruv tizimiga chuqur ta'sir etadi. Masalan, Saudiya Arabistonida davlat boshlig'i

– qirol hokimiyatni ravishda meros sifatida olmaydi, balki u nufuzli diniy arboblardan va ukmron sulola vakillarining rasmiy saylovidan so‘ng taxtga o‘tiradi.

Rasmiy ravishda u qonun chiqarish vakolatiga ega emas. Bu vazifani, ya‘ni Qur‘on va sunnada ifodasini topmagan masalalar to‘g‘risida normativ-huquqiy hujjatlar chiqarishni, basharti ular Hanbaliy mazhabining asosiy tamoyillariga muvofiq kelsa, Vazirlar Kengashi amalga oshiradi (bunday hujjatlar qonunlar deb emas, balki «nizomlar» qarorlar deb ataladi). Qirol eng muhim qarorlarni «maslahat» tamoyiliga qat‘iy rioya qilgan holda, Saudlar urug‘-jamoasining obro‘li a‘zolari, davlatning yirik olimlari, katta qabilalarning shayxlari, asosiy viloyatlarning boshliqlari bilan kengashib, qabul qiladi⁵.

Ikkinchi guruhni Pokiston, Yaman, Liviya, Sudanning huquqiy tizimlari tashkil etadi. Garchi tizimning bevosita ta‘sir doirasi birinchi guruh mamlakatlaridek keng qamrovli bo‘lmasa-da, so‘nggi vaqtlarda esa bu ta‘sir kuchaygan. Musulmon huquqining tamoyil va normalari mazkur mamlakatlarning konstitutsiyaviy tuzdagi asosiy hujjatlariga, davlat mexanizmi tarkibi va faoliyatiga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Xulosa

Fikrimizcha, savollarga javob berishda masalaning bir necha tomonini inobatga olmoq joiz. Eng avvalo, musulmon huquqining evolutsiyasiga nazar tashlab, mumtoz normalarning hozirgi qonunchilikdagi qoidalardan mohiyatan muhim tafovutini alohida ta‘kidlash darkor. Musulmon huquqi yangi sharoitlarda bir qadar o‘zgargan holda, mustaqil huquqiy hodisa kabi amal qiladi, deb aytish xato bo‘ladi. Musulmon huquqining qoidalari nafaqat shakan, balki, mazmunan ham muhim o‘zgarishlarga uchradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T: 2023.
2. J.Toshqulov [va boshq.].Islom huquqshunosligi (Fiqh): o‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Toshkent islom universiteti, .– T.: 2014.
3. S.A. Isxakov, A.R. Raxmanov. Musulmon huquqi: IIV oliy ta‘lim muassasalari uchun darslik.– T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012
4. X.B.Boboyev, Odilqoriyev. X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. –T.: 2005.
5. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. –T.: Adolat. 2018.
6. [www.https://lex.uz](http://www.lex.uz)

⁵ S.A. Isxakov, A.R. Raxmanov. Musulmon huquqi: IIV oliy ta‘lim muassasalari uchun darslik.– T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. B-155-156.